

60411200-Marketing

T/r	Fanning kodi*	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semetr	Professor-o‘qituvchilar F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
1-bosqich 1-semestr: Majburiy fanlar						
1.	AMAT11210	Amaliy matematika 1, 2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo‘llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o‘rganiladi. Bizga ma’lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so‘ngra matematik tildan esa algebra tiliga o‘giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisoddagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu “machine learning” bo‘lib, asosan katta hajmdagi ma’lumotlar omborini tahlil qilishda Python dasturlash tilining “numpy”, “pandas”, “matplotlib”, “sklearn” kutubhonalaridan foydalaniladi. Bu kutubhonalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda “Stata” dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariysi va matematik statistika bo‘limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matritsalar nazariyasidan boshlanib vector fazo tushunchalarigacha bo‘lgan qismni o‘z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o‘z ichiga oladi.	5	1	

2.	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2	Iqtisodiyot nazariyasi 1 – iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va tamoyillarini o'rgatuvchi kirish darajasidagi fan bo'lib, talabalarga iqtisodiy jarayonlar, bozorlar va ulardagi ishtirokchilar, talab va taklif qonunlari, narxlarning shakllanishi hamda iqtisodiy resurslarni taqsimlash kabi asosiy mavzularni tushuntiradi. Bu fan iqtisodiy modellar va nazariyalar asosida jamiyatdagi iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish va tushuntirishga yordam beradi. Fan bo'yicha ko'p hollarda mikroiktisodiyotning muhim aspektlari kiritiladi, bu esa talabalarni keyingi bosqichdagi iqtisodiy bilimlarga tayyorlaydi. Iqtisodiyot nazariyasi 2 – iqtisodiyotning chuqurlashtirilgan tushunchalari va jarayonlarini o'rganishga qaratilgan fan bo'lib, bu fan iqtisodiyot nazariyasining ilg'or tamoyillarini, bozor tahlili, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy qarorlarini o'rganadi. Talabalar iqtisodiy muvozanat, bozor strukturasi (monopoliya, oligopoliya va raqobatli bozorlar), davlatning iqtisodiy siyosatdagi roli, bozorning samaradorligi va kamchiliklari, shuningdek, makroiqtisodiyotdagi muhim tushunchalar, masalan, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, milliy daromad va ishsizlikni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu fan iqtisodiyotning amaliy jihatlarini, jumladan, siyosatni shakllantirish va iqtisodiy tahlillarning ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.	5	1	
3.	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	Mamlakatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan izchil ish olib borilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda.	5	1	

			Ushbu kurs yordamida talabalar iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etishning imkoniyatlari, afzalliklari, dasturiy va texnologik ta'minoti, zamonaviy texnik vositalar, operasion tizimlar va zamonaviy dasturlarda axborotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama o'rganadilar. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va unda bulutli texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlari va texnologiyalari xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning blokcheyn texnologiyalari bilan amallarni bajarish, biznes-muhitlarda biznes axborot tizimlarining faoliyat yuritishi, elektron biznes va biznes anatlilka xisobotlarini tayyorlash va samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama bilimlarga ega bo'ladilar.			
4.	XT11106	Xorijiy til 1 (ingliz, nemis)	Xorijiy til 1 (ingliz, nemis) fani talabalarga birinchi xorijiy tilni o'rganish va unda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu kurs ingliz yoki nemis tilini o'rganishni boshlashdan oldin talabalar uchun tilning asosiy qoidalarini tushunish, yozma va og'zaki so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.	6	1	
5.	BK1105	Biznesga kirish	Biznesga kirish – bu fan talabalarga biznesni tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish bo'yicha asosiy bilimlarni berishga qaratilgan. Unda biznesning mohiyati, biznes-rejani tuzish, bozor tadqiqotlari, marketing strategiyalari, moliyaviy rejalashtirish, kadrlar boshqaruvi va tadbirkorlik faoliyatining yuridik asoslari o'rganiladi. Shuningdek, talabalar biznes muhitidagi asosiy tendensiyalar, biznes turlari (masalan, kichik, o'rta va yirik korxonalar), korxonaning hayotiy davri, resurslar boshqaruvi va moliyaviy hisob-kitoblar bilan	5	1	

			tanishadilar. Fan, ayniqsa, bozor iqtisodiyotida muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillarni tushuntiradi va real biznes jarayonlariga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.			
6.	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Fanni bo'lajak mutaxassislariga o'qitishda talabalarni o'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan hududlardan biri, o'zbek xalqi boy tarixiy o'tmish va bebaho ma'naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma'naviyatning asosi bo'lmish tarix fanining o'rnini talaba yoshlarga o'zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat	4	1	
			1-bosqich 2-semestr: Majburiy fanlar			
7.	AMAT11210	Amaliy matematika 1, 2	Ushbu kursda iqtisodiyotning barcha yonalishlarida qo'llaniladigan matematik tushunchalarning asoslari o'rganiladi. Bizga ma'lumki iqtisodiyotdagi masalalar avval matematika tiliga so'ngra matematik tildan esa algebra tiliga o'giriladi. Natijada iqtisodiy masalalarni yechish uchun ularni algoritmlari yaratiladi. Iqtisoddagi masalalarni yechishda zamonaviy usullardan biri bu "machine learning" bo'lib, asosan katta hajmdagi ma'lumotlar omborini tahlil qilishda "Python" dasturlash tilining "numpy", "pandas", "matplotlib", "sklearn" kutubhonalaridan foydalaniladi. Bu kutubhonalar chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika tushunchalari asosida yaratilgan. Statistika ma'lumotlarni tahlil qilishda "Stata" dasturiy paketi haqida ham huddi shunday fikrlarni bildirish mumkin. Kurs chiziqli algebra, analitik geometriya, matematik analiz, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'limlaridan iboratdir. Chiziqli algebra qismi matritsalar nazariyasidan boshlanib vector fazo tushunchalarigacha bo'lgan qismni o'z ichiga oladi. Matematik analiz qismi funksiyalardan	5	2	

			boshlab, differensial tenglamalar kursini ham o'z ichiga oladi. Hodisalar ehtimolligi, tasodifiy miqdorlar va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga oid bo'lgan masalalar ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qismida mujassam bo'lgan.			
8.	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1, 2	Iqtisodiyot nazariyasi 1 – iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va tamoyillarini o'rgatuvchi kirish darajasidagi fan bo'lib, talabalarga iqtisodiy jarayonlar, bozorlar va ulardagi ishtirokchilar, talab va taklif qonunlari, narxlarning shakllanishi hamda iqtisodiy resurslarni taqsimlash kabi asosiy mavzularni tushuntiradi. Bu fan iqtisodiy modellar va nazariyalar asosida jamiyatdagi iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish va tushuntirishga yordam beradi. Fan bo'yicha ko'p hollarda mikroiqtisodiyotning muhim aspektlari kiritiladi, bu esa talabalarni keyingi bosqichdagi iqtisodiy bilimlarga tayyorlaydi. Iqtisodiyot nazariyasi 2 – iqtisodiyotning chuqurlashtirilgan tushunchalari va jarayonlarini o'rganishga qaratilgan fan bo'lib, bu fan iqtisodiyot nazariyasining ilg'or tamoyillarini, bozor tahlili, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy qarorlarini o'rganadi. Talabalar iqtisodiy muvozanat, bozor strukturasi (monopoliya, oligopoliya va raqobatli bozorlar), davlatning iqtisodiy siyosatdagi roli, bozorning samaradorligi va kamchiliklari, shuningdek, makroiqtisodiyotdagi muhim tushunchalar, masalan, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, milliy daromad va ishsizlikni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu fan iqtisodiyotning amaliy jihatlari, jumladan, siyosatni shakllantirish va iqtisodiy tahlillarning ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.	5	2	
9.	XT21204	Xorijiy til 2 (ingliz, nemis)	Xorijiy til 2 (ingliz, nemis) fani talabalarga birinchi xorijiy tilni o'rganish va unda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu kurs ingliz yoki nemis tilini o'rganishni boshlashdan oldin talabalar uchun tilning asosiy qoidalarini tushunish, yozma va og'zaki so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.	4	2	

10.	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	O'zbek (rus) tili fani talabalarga ona tili yoki rus tilini chuqurroq o'rganish, yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan kursdir. Ushbu fan talabalarni akademik, rasmiy va kundalik so'zlashuv vaziyatlarida tilni to'g'ri va samarali qo'llashga o'rgatadi	4	2	
11.	DIN1204	Dinshunoslik	Talabalarda-yoshlar tafakkurida dinning mazmun-mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o'zaro bog'liqligi, globallashuv va diniy jaryonlari hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligaga salbiy ta'sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.	4	2	
12.	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	Fanni o'qitishda talabalarining umumta'lim maktabi, akademik litsey va kasb - hunar kollejlari jismoniy tarbiya, tibbiy, tibbiy biologiya, ijtimoiy fanlar, maktab gigienasi, pedagogika, umumiy psixologiya, pedagogik mahorat, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, sport tibbiyoti kabi fanlardan olgan bilim va malaka – ko'nikmalarga asoslanadi.	4	2	
13.	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	Talabalarga akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlikning mohiyati va nazariy-uslubiy asoslarini tushuntirish; shaxsiy akademik faoliyat va uni samarali tashkil etish bo'yicha tushunchalar berish; akademik ko'nikmalar va ularni shakllantirish jarayonining o'ziga xos jihatlarini yoritib berish; talabalarga akademik ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari yuzasidan tavsiyalar berish; talabalarda o'z-o'zini boshqarish va samaradorlik uchun javobgarlik hissini uyg'otish; talabalarda mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish;	4	2	

			talabalarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish; ta'lim olish va kasbiy faoliyatni rivojlantirishda kreativ fikrlashning o'rni haqida fikr yuritish; iqtisodchi mutaxassis uchun talab qilinadigan umumiy va kasbiy ko'nikmalar bilan talabalarni tanishtirish.			
			2-bosqich 3-semestr: Majburiy fanlar			
14.	FAL1304	Falsafa	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalar dunyoqarashining umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o'rnini ko'rsatish, insonning dunyoga bo'lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirish hamda to'g'ri fikrlash mahoratini o'rgatishdan iborat.	4	3	
15.	STAT1306	Statistika	Statistika fani ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, talqin qilish va taqdim etish bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, har xil sohalarda qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashda yordam beradi. Bu fan talabalarni statistik uslublar va tahliliy vositalar bilan tanishtiradi, ularga ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini beradi	6	3	
16.	EKMET1310	Ekonometrika	Talabalar zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan ba'zi asosiy ekonometrik usullarni o'rganadilar. Ular algebra va statistika bo'yicha chiziqli kurslarida o'rganganlaridan standart chiziqli modelda va ba'zi boshqa umumiy modellarda OLS baholashning asosiy cheklangan namunalarini va asimptotik xususiyatlarini olish uchun foydalanadilar. Ular ham bilib olishadi endogen regressorlar muammosi va IV va 2SLSni baholash bilan. Bundan tashqari, talabalar iqtisodiy dasturlarda ekonometrik usullar bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'ladilar. Ma'ruzalar davomida talabalar iqtisodiy adabiyotlardan olingan murojaatlarni o'rganadilar. Darslar va kompyuter darslarida ular nazariya haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi, lekin shuningdek, ekonometrik modelni diqqat bilan tanlash va empirik natijalarni qanday talqin qilish haqida	5	3	

			o'ylab, Stata dasturiy ta'minotidan foydalangan holda usul va usullarni o'zlarida qo'llashadi.			
17.	MIKIQ1310	Mikroiqtisodiyot	Mikroiqtisodiyot fani – iqtisodiyotning individual iste'molchilar, firmalar va bozorlar darajasidagi qarorlar va ularning iqtisodiy ta'sirini o'rgatuvchi soha. Ushbu fan talab va taklif, narxlarning shakllanishi, resurslarni samarali taqsimlash, bozorlarning turli shakllari (erkin raqobat, monopoliya, oligopoliya), iste'molchilar xulq-atvori va ishlab chiqaruvchilarning qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganadi. Mikroiqtisodiyot kichik miqyosdagi iqtisodiy hodisalarni tushuntiradi va bozor mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi, bu esa milliy va global iqtisodiyotdagi asosiy jarayonlarni anglash uchun zarurdir.	5	3	
18.	MR13410	Marketing	Marketing fani – mahsulot va xizmatlarni yaratish, ularga bo'lgan talabni shakllantirish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish jarayonlarini o'rgatadigan fan. Ushbu fan marketing tadqiqotlari, iste'molchilar xulq-atvori, bozor segmentatsiyasi, mahsulot joylashuvi, narx belgilash, reklama, brending, va sotuvlarni rag'batlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Marketing fani iste'molchilarni to'g'ri tushunish, ularning ehtiyoj va istaklariga mos keladigan mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish, raqobatchilar orasida ajralib turish va brend imidjini shakllantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni beradi. Tashkilotning bozorda muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash uchun strategik marketing qarorlarini qabul qilish ham muhim o'rin tutadi.	5	3	
			2-bosqich 3-semestr tanlov fanlar (5 ECTS)			
19.	TI2305	Tadbirkorlik va innovatsiyalar	Tadbirkorlik va innovatsiyalar fani – tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishda innovatsiyalarning ahamiyatini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan tadbirkorlikning asosiy tamoyillari, biznes-reja tuzish, yangi mahsulot va xizmatlarni joriy qilish, bozor tadqiqotlari, risklarni boshqarish hamda	5	3	

			raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Fan talabalarga yangi texnologiyalarni tadbirkorlikda qanday qo'llash, startaplar yaratish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va bozorga muvaffaqiyatli kirish usullari bo'yicha bilimlar beradi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida ijodiy fikrlash, yangi imkoniyatlarni aniqlash va raqobatda ustunlikka erishish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u beradi.			
20.	HZEM2305	Hozirgi zamon ekologik muammolari	Fanni o'qitishdan maqsad - Hozirgi zamon ekologik inqirozi, mahalliy salbiy ekologik oqibatlari, iqlim o'zgarishi, potensial ekologik haqqlar, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi, ekologik muammolarning nazariy asoslari qonuniyatlarini tushuntirishdir.	5	3	
			2-bosqich 4-semestr majburiy fanlar			
21.	MAR13410	Marketing	Marketing fani – mahsulot va xizmatlarni yaratish, ularga bo'lgan talabni shakllantirish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va bozorga muvaffaqiyatli olib chiqish jarayonlarini o'rgatadigan fan. Ushbu fan marketing tadqiqotlari, iste'molchilar xulq-atvori, bozor segmentatsiyasi, mahsulot joylashuvi, narx belgilash, reklama, branding, va sotuvlarni rag'batlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Marketing fani iste'molchilarni to'g'ri tushunish, ularning ehtiyoj va istaklariga mos keladigan mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish, raqobatchilar orasida ajralib turish va brend imidjini shakllantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni beradi. Tashkilotning bozorda muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash uchun strategik marketing qarorlarini qabul qilish ham muhim o'rin tutadi.	5	3	
22.	MEN1504	Menejment	Menejment fani – tashkilotlarni samarali boshqarish, ularning maqsadlariga erishish uchun resurslarni to'g'ri taqsimlash va foydalanishni o'rgatadigan fan hisoblanadi. Ushbu fan menejmentning asosiy tamoyillari, boshqaruv jarayonlari, rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik va nazorat kabi funksiyalarni qamrab oladi. Shuningdek, menejmentda qaror qabul qilish, jamoani boshqarish, motivatsiya, inqirozlarni boshqarish, strategik	5	4	

			menejment va innovatsion yondashuvlar o'rganiladi. Menejment fani tashkilotlarda samaradorlikni oshirish, resurslarni optimal boshqarish, xodimlarni rag'batlantirish va tashkilot maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish uchun strategik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu fan menejerlarga o'z jamoalari va resurslarini samarali boshqarish, o'sishni ta'minlash va raqobatbardoshlikka erishish bo'yicha bilimlar beradi.			
23.	ITT1405	Iste'mol tovarlari tovarshunosligi	Iste'mol tovarlari tovarshunosligi fani iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarning xususiyatlari, ularni ishlab chiqarish texnologiyalari va sifatini baholash usullarini o'rganadi. Ushbu fan, mahsulotlarning turli turlari, ularning iste'mol qiymati, xavfsizligi va iqtisodiy jihatlarini tushunishga yordam beradi. Bu bilim mahsulotlar ishlab chiqarish, sotish va xarid qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi.	5	4	
24.	MRK1405	Marketing kommunikatsiyasi	Marketing kommunikatsiyasi fani – kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlarini bozorga chiqarishda mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish usullarini o'rgatuvchi fan. Ushbu fan reklama, jamoatchilik bilan aloqalar, sotuvni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri marketing va raqamli marketing kabi turli kommunikatsiya vositalaridan foydalanishni qamrab oladi. Marketing kommunikatsiyasi iste'molchilarga mahsulot yoki xizmatning afzalliklari va qiymatini etkazish, brend imidjini shakllantirish va xaridorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni yaratish maqsadida o'rganiladi. Fan, shuningdek, kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish, brend xabardorligini oshirish va bozorga ta'sir ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.	5	4	
25.	MRT1405	Marketing tadqiqotlari	Marketing tadqiqotlari fani – bozorni o'rganish va ma'lumotlar yig'ish orqali marketing qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi fan. Ushbu fan iste'molchilar xulq-atvori, bozor talabi, raqobatchilar, mahsulot samaradorligi va marketing strategiyalari haqida ma'lumot yig'ish va tahlil qilish usullarini o'rgatadi.	5	4	

			Marketing tadqiqotlari doirasida bozor segmentatsiyasi, so'rovnomalar, fokus-guruhlar, eksperimentlar, va ma'lumotlarni statistik tahlil qilish kabi usullar qo'llaniladi. Ushbu fan talabalarga marketing strategiyalarini samarali ishlab chiqish, mahsulot joylashuvi va narx belgilash, shuningdek, mijozlarning ehtiyoj va istaklarini aniqlash uchun ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini beradi.			
			2-bosqich 4-semestr tanlov fanlar (5 ECTS)			
26.	KB2405	Korporativ boshqaruv	Korporativ boshqaruv fani – korxonalar va tashkilotlarni samarali boshqarishning prinsiplarini, aksiyadorlar, menejment va direktorlar kengashi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning usullarini o'rgatadi. Ushbu fan korxona faoliyatida shaffoflik, javobgarlik, hisobotdorlik va manfaatlar muvozanati kabi tamoyillarni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Talabalar korporativ boshqaruvning huquqiy jihatlari, risklarni boshqarish, etika va ijtimoiy mas'uliyat, hamda boshqaruvda xalqaro standartlarni qo'llash haqida bilim oladilar. Korporativ boshqaruv kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.	5	4	
27.	II2405	Institutsional iqtisodiyot	Institutsional iqtisodiyot fani – iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi institutlar va tashkilotlarning rolini o'rganuvchi fan. Bu fan doirasida qonunlar, qoidalar, ijtimoiy normalar, va tashkilotlar (davlat, korxonalar, bozorlar) iqtisodiy qarorlar va rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Institutsional iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish va samaradorlikka institutlarning qanday ta'sir qilishini, shuningdek, huquqiy va siyosiy tuzilmalarning bozor xulq-atvori, mulk huquqi va iqtisodiy resurslarning taqsimlanishiga ta'sirini o'rganadi. Ushbu fan talabalarga iqtisodiy samaradorlik va rivojlanishni oshirish uchun institutlar va qoidalarni takomillashtirish zarurligini tushunishga yordam beradi.	5	4	
28.	SST2405	Soliqlar va soliqqa tortish	Soliqlar va soliqqa tortish fani davlat tomonidan soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini o'rganadi. Bu fan	5	4	

			solliqlar, ularning turlari, soliqqa tortish tizimlari va soliq qonunchiligini chuqur tahlil qiladi. Soliqlarning iqtisodiyotga ta'siri, davlat byudjetini shakllantirishdagi roli va soliq to'lovchilarning majburiyatlarini ham o'z ichiga oladi.			
29.	RI2405	Raqamli iqtisodiyot	"Raqamli iqtisodiyot" kursida bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt, kata ma'lumotlar, blokcheyn va kriptovalyutalar o'rganiladi, raqamli biznes bilan tanishtiriladi. Raqamli transformasiyaning jamiyat uchun foydali yoki zararli bo'lishi mumkinmi degan savolga javoblar turli vaziyatlarda ko'rib chiqiladi. Raqamli bozorlarga xos bo'lgan haqiqiy holatlar ham tahlil qilinadi. Birinchidan, talabalar raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiyot sohalarida foydalanishni tahlil qiladilar, ikkinchidan, talabalar raqamli sektorlarda tez-tez paydo bo'ladigan platformalar va ikki tomonlama bozorlarning iqtisodiy xususiyatlarini o'rganadilar. Uchinchidan, kurs raqamli infratuzilma va raqamli mamlakatni qurish masalalarini qamrab oladi. To'rtinchidan, blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq iqtisodiy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, talabalar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash va unda bulutli texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlari va texnologiyalari xavfsizligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning blokcheyn texnologiyalari bilan amallarni bajarish, biznes-muhitlarda biznes axborot tizimlarining faoliyat yuritishi, elektron biznesni yuritish va samarali foydalanish bo'yicha har tomonlama bilimlarga ega bo'ladilar	5	4	
			3-bosqich 5-semestr majburiy fanlar			
30.	IRB1505	Inson resurslarini boshqarish	Inson resurslarini boshqarish fani – tashkilotlarda kadrlarni samarali boshqarish, ularning malakasi, motivatsiyasi va ish unumdorligini oshirishga qaratilgan fan. Ushbu fan inson resurslarini jalb qilish, tanlash, o'qitish, rivojlantirish, rag'batlantirish va faoliyatini baholash jarayonlarini o'rganadi. Inson resurslarini	5	5	

			boshqarish bo'yicha asosiy mavzular orasida mehnat qonunchiligi, ishchi-xodimlar bilan munosabatlar, jamoani boshqarish, mehnat samaradorligini oshirish, ish joyidagi madaniyatni yaratish va o'zaro munosabatlarni mustahkamlash kabi yo'nalishlar kiradi. Fan, shuningdek, kompaniya strategiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun inson kapitalini to'g'ri boshqarish tamoyillarini tushuntiradi.			
31.	IXA1505	Iste'molchi xulq atvori	Iste'molchi xulq atvori fani – iste'molchilarning mahsulot va xizmatlarni tanlash, sotib olish va iste'mol qilish jarayonlarini o'rganadigan fan. Ushbu fan iste'molchilarning psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida qanday qaror qabul qilishini, ularning ehtiyojlari va motivatsiyalarini tahlil qiladi. Fan doirasida iste'molchilar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar, masalan, individual ehtiyojlar, shaxsiyat, tajriba, jamiyatning roli va marketing strategiyalari o'rganiladi. Iste'molchi xatti-harakati fani bozor talabini shakllantirish va iste'molchilarning xatti-harakatlarini prognoz qilish uchun muhim hisoblanadi, bu esa kompaniyalarga mahsulot yoki xizmatlarni to'g'ri joylashtirish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.	5	5	
32.	BB1505	Brendni boshqarish	Brendni boshqarish fani – kompaniyaning mahsulot yoki xizmatlari uchun barqaror, kuchli va taniqli brend yaratish va uni samarali boshqarish jarayonlarini o'rgatuvchi fan. Ushbu fan brendning qadriyatlarini shakllantirish, bozor joylashuvi, brend strategiyalari, brend identifikatsiyasi, mijozlar bilan munosabatlar va brend sodiqligini rivojlantirish kabi mavzularni qamrab oladi. Fan doirasida brendning imidjini yaratish, uni raqobatchilardan ajratib ko'rsatish va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun kommunikatsiya va marketing strategiyalari qanday qo'llanilishi o'rganiladi. Brendni boshqarish talabalarga mijozlarning brendga bo'lgan ishonch va sodiqligini oshirish, brend qadriyatlarini saqlab qolish va bozor o'zgarishlariga moslashish bo'yicha bilim va ko'nikmalar beradi.	5	5	

33.	RM1505	Raqamli marketing	Raqamli marketing fani onlayn platformalar va raqamli vositalar orqali mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish, iste'molchilar bilan bog'lanish hamda brend yaratish usullarini o'rganadi. Ushbu fan internet texnologiyalari, ijtimoiy media, qidiruv tizimlari, elektron pochta marketingi va mobil ilovalar orqali marketing kampaniyalarini yaratish va boshqarishga qaratilgan.	5	5	
			3-bosqich 5-semestr Tanlov fanlar (10 ECTS)			
34.	QXT2505	Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik	Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik fani – qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirishni o'rgatadi. Ushbu fan agrar sektorning o'ziga xos xususiyatlari, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, bozorga olib chiqish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish jarayonlarini qamrab oladi. Fan talabalarga qishloq xo'jaligi biznes-rejasini tuzish, bozor talablarini tahlil qilish, risklarni boshqarish, agrar biznesda davlat siyosati va qishloq hududlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni tushuntiradi. Bundan tashqari, agrar sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi.	5	5	
35.	QXOS2505	Marketingni boshqarish	Marketingni boshqarish — bu korxona yoki tashkilotning marketing faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi — mijozlarning ehtiyojlarini aniqlab, ularni qondirish orqali korxona foydasini oshirishdir. Bozorni tahlil qilish – xaridorlar, raqobatchilar va bozor sharoitlarini o'rganish. Marketing strategiyasini ishlab chiqish – maqsadli bozorni tanlash va unga mos mahsulot, narx, reklama hamda sotuv siyosatini belgilash. Marketing aralashmasi (4P) – mahsulot (Product), narx (Price), joylashtirish (Place) va targ'ibot (Promotion)ni boshqarish. Natijalarni baholash – marketing faoliyatining samaradorligini o'lchash va kerakli o'zgarishlarni kiritish.	5	5	

36.	XI2605	Xulq atvor iqtisodiyoti	Xulq-atvor iqtisodiyoti fani – insonlarning iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonlarini va ularning psixologik, ijtimoiy omillarga qanday ta'sirlanishini o'rganuvchi fan. Ushbu fan an'anaviy iqtisodiy modellarni psixologiya va ijtimoiy bilimlar bilan boyitib, insonlarning harakatlarida ratsional emas, balki hissiy va intuitsion omillarning qanday rol o'ynashini tahlil qiladi. Xulq-atvor iqtisodiyoti iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning qaror qabul qilishida kognitiv chalg'ituvchilar, xatolar, odatlar, va hissiy holatlar qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Fan talabalarga real hayotda iqtisodiy agentlar (masalan, iste'molchilar, investorlar) ratsional qarorlar qabul qilmasligi va bu qarorlar jamiyat va bozor iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, siyosat va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.	5	5	
37.	IO'EM2505	Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv	Iqlim o'zgarishi va ekologik moslashuv fani global iqlim o'zgarishining sabablarini, uning ta'sirlarini va jamiyat hamda tabiiy ekotizimlar uchun moslashuv strategiyalarini o'rganishga qaratilgan. Bu fan atrof-muhitning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun moslashuvchanlikni oshirish, xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llarini izlaydi.	5	5	
3-bosqich 6-semestr majburiy fanlar						
38.	BH2305	Buxgalteriya hisobi	Buxgalteriya hisobi fani moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish, korxona va tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar va texnikalarni o'rgatuvchi kursdir. Bu fan orqali talabalar moliyaviy ma'lumotlarni to'g'ri qayd etish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.	5	6	
39.	SMR1605	Strategik marketing	Strategik marketing fani – kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun bozorni tahlil qilish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish jarayonlarini o'rgatuvchi fan. Bu fan bozor segmentatsiyasi, raqobatchilarni o'rganish, mijoz ehtiyojlarini tahlil qilish, mahsulot joylashuvi va marketing aralashmasini (narx, mahsulot, targ'ibot, va joylashtirish)	5	6	

			rejalashtirish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Strategik marketingning asosiy maqsadi kompaniyaning bozorda raqobatbardoshligini oshirish va mijozlar ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlar taklif qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashdir. Fan doirasida talabalar bozor imkoniyatlarini aniqlash, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va resurslarni samarali taqsimlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.			
40.	XM1605	Xalqaro marketing	Xalqaro marketing fani – kompaniyalar va tashkilotlarning global bozorlar uchun mahsulot va xizmatlarni rejalashtirish, targ'ib qilish va sotish jarayonlarini o'rgatuvchi fan. Ushbu fan xalqaro bozorlarda marketing strategiyalarini ishlab chiqish, madaniy, iqtisodiy va huquqiy farqlarni hisobga olish, global iste'molchilar xulq-atvori, xalqaro raqobat, va eksport-import jarayonlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro marketing doirasida talabalarga turli mamlakatlarda marketing aralashmasini (narx, mahsulot, targ'ibot va tarqatish) moslashtirish, global bozorlarda brend yaratish, va xalqaro marketing siyosatlarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalar beriladi. Ushbu fan kompaniyalarni xalqaro bozor talablariga moslashish va global miqyosda muvaffaqiyat qozonishga yo'naltiradi.	5	6	
41.	BMIU1606	Barqaror marketing va ijtimoiy o'zgarishlar	Barqaror marketing va ijtimoiy o'zgarishlar fani – marketing faoliyati orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatli o'zgarishlarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan fan. Ushbu fan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda marketingning rolini, resurslarni oqilona sarflashni targ'ib qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun marketing strategiyalarini qo'llashni o'rgatadi. Fan ijtimoiy marketing, eko-marketing, barqaror mahsulotlar yaratish va iste'molchilarning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish usullari bilan shug'ullanadi. Shuningdek, u korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy o'zgarishlarga qanday hissa qo'shishi,	5	6	

			mas'uliyatli biznes amaliyotlarini qanday rivojlantirishi mumkinligini tahlil qiladi.			
			3-bosqich 6-semestr Tanlov fanlar (10 ECTS)			
42.	XSM2605	Xizmatlar sohasi marketingi	Xizmatlar sohasi marketingi — bu moddiy mahsulotlardan farqli ravishda, xizmatlarni yaratish, targ'ib qilish va iste'molchiga yetkazish jarayonini o'rganadigan fan hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali ularning ehtiyojlarini qondirish va ularning sadoqatini oshirishdir. Xizmatlarning xususiyatlari – ularning nomoddiylik, ajralmasligi, o'zgaruvchanligi va saqlanmasligi. Xizmat marketingi aralashmasi (7P) – mahsulot (Product), narx (Price), joy (Place), targ'ibot (Promotion), odamlar (People), jarayon (Process) va jismoniy muhit (Physical evidence). Mijozlar bilan munosabatlar marketingi – doimiy aloqalar o'rnatish va mijoz ishonchini mustahkamlash. Xizmat sifatini boshqarish – mijozlarning qoniqishini oshirish orqali raqobat ustunligini ta'minlash.	5	6	
43.	YI2605	Yashil iqtisodiyot	Yashil iqtisodiyot fani – ekologik barqarorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimlarni o'rganadigan fan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy yondashuvlarni o'rgatadi. Ushbu fan barqaror rivojlanish, uglerod izini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni boshqarish, resurslarni tejash va yashil texnologiyalarni joriy etish kabi masalalarni qamrab oladi. Yashil iqtisodiyot fani talabalarga iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish, davlat siyosati va biznes amaliyotlarini atrof-muhitni muhofaza qilish bilan moslashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar beradi. Shuningdek, bu fan iqlim o'zgarishi, energiya samaradorligi va yashil investitsiyalar kabi mavzularni chuqur tahlil qiladi va iqtisodiyotning atrof-muhitga zarar yetkazmasdan qanday rivojlanishi mumkinligini o'rgatadi.	5	6	

44.	MHH2605	Moliyaviy hisob va hisobot	Moliyaviy hisob va hisobot fani kompaniya yoki tashkilotlarning moliyaviy faoliyatini hisobga olish, moliyaviy natijalarni o'lash va hisobotlar tayyorlash jarayonlarini o'rganadi. Ushbu fan moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.	5	6	
45.	BRA2605	Barqaror rivojlanish asoslari	Barqaror rivojlanish asoslari — bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni birlashtirib, kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolgan holda hozirgi zamon ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan fan sohasi. Barqaror rivojlanish inson faoliyatining natijalari, resurslardan foydalanish va ularning ta'sirini o'rganadi	5	6	
4-bosqich 7-semestr Tanlov fanlar (30 ECTS)						
46.	OIB2705	Oziq-ovqat iqtisodiyoti va biznesi	Oziq-ovqat iqtisodiyoti va biznesi fani – oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol va savdo jarayonlarini iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganadigan fan. Ushbu fan oziq-ovqat sanoatidagi iqtisodiy tamoyillar, bozor tahlili, narx belgilash, ta'minot zanjirlari va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi. Fan oziq-ovqat sektoridagi korxonalarning tashkil etilishi, boshqarilishi va innovatsiyalarni joriy etish jarayonlarini ham o'rgatadi. Talabalar oziq-ovqat ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorlik, global oziq-ovqat bozorlari, raqobatbardoshlik va oziq-ovqat bilan bog'liq siyosatni tahlil qilish bo'yicha bilim oladilar. Oziq-ovqat biznesini boshqarish va oziq-ovqat sohasida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash fanining asosiy maqsadlaridan biridir.	5	7	
47.	IXH2705	Iste'molchi xatti-harakati	Iste'molchi xatti-harakati fani – iste'molchilarning mahsulot va xizmatlarni tanlash, sotib olish va iste'mol qilish jarayonlarini o'rganadigan fan. Ushbu fan iste'molchilarning psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida qanday qaror qabul qilishini, ularning ehtiyojlari va motivatsiyalarini tahlil qiladi. Fan doirasida iste'molchilar xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar, masalan, individual ehtiyojlar, shaxsiyat, tajriba, jamiyatning roli va marketing	5	7	

			strategiyalari o'rganiladi. Iste'molchi xatti-harakati fani bozor talabini shakllantirish va iste'molchilarning xatti-harakatlarini prognoz qilish uchun muhim hisoblanadi, bu esa kompaniyalarga mahsulot yoki xizmatlarni to'g'ri joylashtirish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi.			
48.	RI2705	Rivojlanish iqtisodiyoti	Rivojlanish iqtisodiyoti fani – iqtisodiy o'sish va rivojlanish jarayonlarini, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida o'rganuvchi fan. Ushbu fan iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni, masalan, kambag'allik, tengsizlik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, va institutsional islohotlarni tahlil qiladi. Rivojlanish iqtisodiyoti iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiy siyosatlarni ishlab chiqish va milliy daromadni oshirish usullari bilan shug'ullanadi. Fan talabalarga iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, barqaror o'sishni ta'minlash, cheklangan resurslardan optimal foydalanish, va xalqaro yordamning rolini tushunish uchun zarur bilimlarni beradi. Rivojlanish jarayonlari orqali kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish fanining asosiy maqsadlaridandir.	5	7	
49.	IM2705	Innovatsion marketing	Innovatsion marketing — bu yangi g'oyalar, mahsulotlar yoki texnologiyalarni bozorga muvaffaqiyatli kiritish va ularni iste'molchilarga yetkazish jarayonini o'rganadigan fan hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — innovatsiyalar orqali korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlar uchun yangi qiymat yaratishdir. Bozor va texnologik yangiliklarni tahlil qilish – yangi imkoniyatlarni aniqlash. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish – innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish. Innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish – marketingda yangi yondashuvlar va usullarni qo'llash.	5	7	
50.	BH2705	Boshqaruv hisobi	Boshqaruv hisobi fani tashkilot ichidagi moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun foydalanuvchilarga (boshqaruvchilar va rahbarlar) taqdim etishga qaratilgan. Ushbu fan	5	7	

			korxonaning moliyaviy samaradorligini oshirish, xarajatlarni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Boshqaruv hisobi moliyaviy hisobotdan farqli o'laroq, ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun mo'ljallangan va ko'proq operatsion va strategik rejalar tuzishda ishlatiladi.			
51.	LOG2705	Logistika	Logistika — bu mahsulotlar, xomashyo, xizmatlar va axborot oqimini ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha samarali va tejamkor tarzda yetkazib berish jarayonini o'rganadigan fan hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi — tovarlarni to'g'ri joyga, to'g'ri vaqtda, kerakli miqdorda va minimal xarajat bilan yetkazishni ta'minlashdir. Ta'minot logistikasi – xomashyolarni yetkazib olish va saqlash. Ishlab chiqarish logistikasi – ishlab chiqarish jarayonini resurslar bilan ta'minlash. Taqsimot logistikasi – tayyor mahsulotlarni mijozlarga yetkazish. Transport va omborxona boshqaruvi – tashish va saqlash jarayonlarini optimallashtirish.	5	7	
52.	TIZK2705	Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyalari	Fanni o'qitishdan maqsad - Har bir o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar hayotiga quyosh, havo, suv, tuproq va boshqa ko'pgina unsurlar doimo ta'sir qilib turadi. Insoniyat ham tabiatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, u o'zining tirikligi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni tabiatdan oladi. Demak, inson tabiatning rivojlanish qonunlarini, o'simliklar va hayvonlar bilan notirik tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni bilib olgandagina uning bitmas-tuganmas boyliklaridan to'g'ri foydalana oladi.	5	7	
53.	I2705	Investitsiya	Investitsiya fani kapitalni qo'yish, risklarni baholash va investitsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu fan investorlar va moliyaviy mutaxassislar uchun turli investitsiya imkoniyatlarini, ularning xavf-xatarlarini va foydasini tahlil qilish, investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda yordam beradi.	5	7	
54.	KM2705	Korporativ moliya	Korporativ moliya fani korxonalar va kompaniyalar tomonidan	5	7	

			moliyaviy resurslarni boshqarish, investitsiya qarorlarini qabul qilish, kapital tuzilishini optimallashtirish va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish jarayonlarini o'rganadi. Ushbu fan moliyaviy nazorat, moliyaviy tahlil va moliyaviy rejalar tuzish bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.			
55.	BLAW2000 2	Raqamli platformalarni tartibga solish	Ushbu kurs talabalarni turli xil raqamli platformalar va ularning biznes amaliyotlari, shuningdek, axborot iqtisodiyotidagi ba'zi asosiy tartibga solish sohalari bilan tanishtiradi.	5	7	
56.	PB2705	Pul va banklar	Pul va banklar fani pulning iqtisodiy rolini, uning funksiyalarini, bank tizimini va moliyaviy muassasalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Ushbu fan pulning iqtisodiyotdagi ahamiyatini, banklarning funksiyalarini, moliyaviy resurslarni boshqarishni va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul va bank tizimlarining o'rnini tahlil qiladi.	5	7	
			4-bosqich 8-semestr majburiy fanlar			
57.		Malakaviy amaliyot	Malakaviy amaliyotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1. Ilmiy, konstruktorlik va loyixa tashkilotlarida, birjalarda, banklarda, makroiqtisodiyot va statistika qo'mita organlarida malumotlar yig'ish, ularni qayta ishlashda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash usullarini o'rganish. 2. Umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda, kasb-hunar kollejlarida, institutlarda va universitetlarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida olib borish usullari bilan tanishish. 3. Talabalar amaliyot o'tadigan tashkilotlarda mavjud bo'lgan uslubiy ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqnomalar va h.k. hujjatlarni o'rganish. 4. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarda mustaqil ishlashning amaliy yakunlarini egallash. 5. Axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilishda, hamda hisobot ma'lumotlarining aniqligini tekshirishda talabalarning bevosita ishtirok etishlarini ta'minlash. 6. Amaliyot o'tadigan tashkilotlarning o'zida mavjud bulgan vazifalarini bajarishi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy ommaviy ishlarni olib borishda ko'maklashish. 7. Ijtimoiy-siyosiy	20	8	

			tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlar olib borish sohasida kerakli o'quv bilimlarni egallash. 8. Amaliyot haqidagi hisobotni, ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun kerakli materiallarni to'plash.			
58.		Yakuniy davlat attestatsiyasi	Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash; yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish; Komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.	10	8	

Izox: 1. * - Fan kodi quyidagicha belgilanadi: fanning qisqartirilgan nomi, majburiy yoki tanlovligi (majburiy fan - 1, tanlov fani - 2), o'qitiladigan semestr(lar), ajratilgan umumiy kredit miqdori. Masalan: "XT1108" - XT – "Xorijiy til" Fani, 1 - majburiy Fan, 1 - birinchi semestrda o'qitiladi; 08 - fanga ajratilgan umumiy kredit miqdori.

2. Namunaviy o'quv rejasi va fanlar katalogiga mos ravishda talabning shaxsiy ta'lim trektoriyasi shakllantiriladi.

Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi mudiri



O.Pardayeva